

MAQSUD SHAYXZODANING TOSHKENTNOMA ASARIDA TOSHKENT MADHI

Ikramova Feruza Xayrullayevna

*Toshkent Davlat Transport Universiteti Avtomobil yo'llarini qidiruv va loyihalash
kafedrası dotsenti*

Sanjarova Marjona Sanjar qizi

Toshkent Davlat Transport Universiteti YMSH-6 guruhi talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Toshkentnoma asarining adib Maqsud Shayxzoda tomonidan yozilish tarixi va asarning mazmun mohiyati yoritilgan.

Maqsud Shayxzodaning asarda keltirilgan badiiy uslubiyati, so'zlarning jozibadorlik bilan qo'llanishi haqida ham fikrlar bildirilgan.

Abstract : In this article, the history of the writing of Tashkentnama by writer Maqsud Shaykhzoda and the content of the work are explained.

Opinions were also expressed about Maqsud Sheikhzadeh's artistic style and attractive use of words.

Kalit so'zlar: Doston, ko'hna, she'riyat, Maqsud Shaxzoda, qahramonlik.

Keywords: Epic, old, poetry, Maqsud Shahzade, heroism.

Ha qachon, har qayda deyilsa "Toshkan",

Degaysan yozlarga yozlar tutashgan,

Ha, "Toshkan" deyilsa, esga kelar yoz...

Ha, "Toshkan" deyilsa Quyosh esda shay.

Maqsud Shayxzoda 1928-yilda Toshkentga surgun qilinadi va umrining oxirigacha shu yerda yashab ijod qiladi. Shoir Toshkentda yashab, ijod qilib, uning ma'daniyati, buyuk tarixi, xalqaro munosabatlarini o'zning "Toshkentnoma" dostonida keng bayon qilib o'tadi. Maqsud Shayxzodani ijodda ulg'ayganligiga dalolat beradi. Ushbu asarda

shoirning ko'hna va azim Toshkentga bo'lgan muhabbati, sevgisi go'zal va beqiyos satrlarda o'z aksini topadi."Toshkentnoma" da muallif ko'proq Toshkent shahrini madh etgan bo'lsada, asosiy e'tiborni shu yerda yashovchi kishilar ruhini,o'y kechinmalarini ochishga hayotning mohiyati,yashashning mazmini to'g'risidagi falsafiy fikrlarni ifodalashga qaratgan edi:

Har qachon, har qayda deyilsa "Toshkan",
Degaysan yozlarga yozlar tutashgan,
Ha, "Toshkan" deyilsa, esga kelar yoz..
Ha, "Toshkan" deyilsa, Quyosh esda shay.
Quyoshki, umrzoq avlodga damsoz,
Bu yerda hamma der: - "Quyoshcha yashay"...
Shaharlar boqiydir, umr – o'tkinchi,
Daryolar sobitdir, suvlar – ko'chkinchi.
Har kim o'z shahrida qo'ygan esdalik:
YO bino qurishda katta ustalik,
YO shirin latifa yoki ixtiro,
YO daraxt, yo farzand, ko'prik, yo misra,
YO qo'shiq, yo dori, maktab, sog'chilik,
Xulosa: dunyoda biron yaxshilik...

Maqsud Shayxzoda ko'pqirrali iste'dod sohibi sifatida asarlarida psixologizm tamoyillarini qo'llay olgan adabiyotshunosdir. Akademik M.B.Xrapchenkoning aniqlashicha, XIX asrning birinchi yarmidan boshlab, inson ichki dunyosini badiiy tadqiq etish muammosini tekshirish kuchayadi va psixologizm (ruhiyat) prinsiplarini ishlab chiqish boshlanadi.

Bir vaqtlar men senga shahrimni maqtab
Qilarkan ta'rifin, sen bir oz to'xtab,
«Shunchalar bormikan?» deb gumon qilding,
«Ko'rganda aytamiz!» deb imo qilding.

Va aytding – darvoqe ko'rgandan keyin:

«Maqtoving oz ekan, soz ekan uying!»

Shoir bu misralarda avvalo hayot hamda realizm va uning chuqurlashuvi bilan ham bog'liqlikni maqtovini keltirgan. U ning ta'rifi hamkorining Toshkentni ko'rishga bo'lgan ishtiyoqini, undagi his tuyg'ularni kuchayishiga, intellektual o'sishiga, ijodiy kuchlarning ravnaq topishiga, o'z huquqlarini faol himoya qilishi, o'z qadru qimmatini bilishi, jamiyatda markaziy mavqega ko'tarilishi va fikrlarining teranlashuviga olib keldi. Psixologizm (ruhiyatchilik yoki ruhiyatni aks ettirish) orqali shoir asar qahramonlarining ichki dunyosi tahlil qilishga muvaffaq bo'lgan.

Maqsud Shayxzodaning psixoanalizi negizida insoniylik, axloq, falsafa, inson ongi takomili turadi. SHoir "Toshkentnoma" dostonini tahlil qilishda soxtalik, loqaydlik, riyokorlik, mahalliychilik, og'aynigarchilik, egoizm, amalparastlik, milliy ong qoloqligi, siyosatdan qochishga harakat qilgan va psixologizmning esdalik, o'y, xayol, qayta baholash, ichki monolog, portret, qayta ifoda etish va boshqa usullaridan mohirona foydalana olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zokirov M. Maqsud Shayxzoda. Adabiy tanqidiy ocherk, T., 1969 y.
2. Saliyeva Ug'ilo'ly Kalmurat qizi Maqsud Shayxzodaning "Toshkentnoma" dostoniga chizgilar
3. Boboyev T. "Adabiyotshunoslik asoslari". Toshkent. 2002. 558 b.
4. G'afurov I., O'rtoq shoir. Maksud Shayxzoda ijodiyoti, T., 1975 y. – 215
5. Maksud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983 y.
6. Yusuf Shomansur. Shayxzoda — bunyodkor shoir, T., 1972 y. - 179 b.